

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№11-S O N

9710 xalqaro daraja



№240874




ISSN: 3060-4621

2025-YIL, NOYABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulnaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron nashr 725 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29- noyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BANGLADESH VA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISHI....	7
Soliyev Axmadjon	
ИНТЕГРАЦИЯ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭКОСИСТЕМУ E-COMMERCE: АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ КОНВЕРСИИ И ПОЛЬЗОВАТЕЛЬСКОГО ОПЫТА НА ПРИМЕРЕ КРУПНЕЙШИХ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ	22
Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
МОДЕЛИ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОДА ТН ВЭД: ПЕРСПЕКТИВЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ	37
Муратова Шохиста Ниматуллаевна	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINING O'ZIGA HOS JIHATLARI (RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI MISOLIDA).....	45
Tuychiev Alisher Jurayevich	
ОСОБЕННОСТИ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ	56
Касимова Фатима Тулкуновна, Джалилов Шерзод Кахрамонович	
FACTORS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF PRODUCTION POTENTIAL OF INDUSTRIAL ENTERPRISES	62
Allaeva Gulchekhra Jalgasovna	
HUDUDLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIK KO'RSATKICHLARI TENDENSIYASINI BAHOLASH	70
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI	78
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
MAJBURIY SUG'URTA ZAXIRALARINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING AMALDAGI HOLATI	85
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLAR FAOLIYATINI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI.....	98
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
SANOAT KORXONASI BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNDA KICHIK BIZNESNING O'RNI	107
Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
TIBBIYOT MUASSASALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISH, HISOBGA OLISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	116
Ruziyeva Umida Muzaffarovna	
INNOVATSION STRATEGIYANI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MEZON VA KO'RSATKICHLARI	126
Yusupov Saidvali Shukrullayevich	
SOHALAR KESIMIDA SOLIQ YUKINI ANIQLASHNING AHAMIYATI	137
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Aminboyev Javohir Ravshanbek o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Choriyev Og'abek Alisher o'g'li, Usmonov Doniyor Maxamadjon o'g'li	
АНАЛИЗ ДЕТЕРМИНАНТ МИГРАЦИОННОГО ОТТОКА ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ ИЗ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИЙ ИХ РЕТЕНЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ	144
Сайфутдинова Нигина Фуркатовна, Хусаннов Равшан Рахимович	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ УЗБЕКИСТАНА.....	157
Холикова Рухсора Санджаровна	
O'ZBEKISTON ELEKTRON PULGA O'TISH SHAROITIDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI BARTARAF ETISHDAN KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK.....	169
Abdiyev Mansur Musurmonovich, Xujamuradov Abror Ro'zimurat o'g'li, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
O'ZBEKISTONDA MAQBUL QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	185
Akbarov Boburjon Sobirjon o'g'li	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	193
Ramazanov Suhrobjon Sherzod o'g'li	

TASHQI SAVDO KO'RSATKICHLARINING KO'P OMILLI KLASSTER TAHLILI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	202
Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.....	209
Soliyev Axmadjon, Ibroximov Avazbek	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGİYALARI	217
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
MINTAQADA IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARDAN SAMARALI FOYDALANISH XUSUSIYATLARI	222
Sapayev Maxsudbek Karimovich	
MINTAQ SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	227
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MODERN APPROACHES TO INDUSTRIAL COOPERATION AND THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN'S ECONOMY	233
Boyturayev Olimjon Urayimovich	
NAVOIY VILOYATIDA “YASHIL BELBOG’”LAR BARPO ETISHDA INFRATUZILMA BILAN TA'MINLASH MINTAQAVIY MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI	244
Sayfulina Alfira Feratovna	
MINTAQ SAVDO KORXONALARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH	259
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	266
Raximov Furqat Jalolovich	
MARKAZIY BANKNING PUL TAKLIFI VA BANK REZERV LARI SIYOSATI: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TAHLIL.....	276
Safarova Zarina	
TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATUVCHI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	286
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	
INTEGRATED E-COMMERCE MANAGEMENT SYSTEM BASED ON THE ERPI INDEX: CONCEPT, METHODOLOGY, AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN	295
Isokhujaeva Munira Yashnarovna	
РАЗВИТИЕ ВНУТРЕННЕЙ ТОРГОВЛИ И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ	301
Рауандина Гулдарай Калкеновна, Сайфуллаева Мадина Исмаевна	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI MAHSULOT PASPORTINI YARATISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	315
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
DUNYODAGI MINTAQAVIY TAFOVUTLAR: ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI KAMAYTIRISH BO'YICHA YECHIMLAR.....	327
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	
INTELLEKTUAL BOSHQARUV TIZIMLARINING SANOAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI ROLI	334
Xidirova Barchinoy Ilxomovna	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING ROLI	341
Mauzerov Jaxongir Ulug'bek o'g'li	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MARKETINGNING AHAMIYATI	348
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	355
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
ЭВОЛЮЦИЯ МАРКЕТИНГА И ТЕХНОЛОГИЙ КАК ФАКТОРОВ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	362
Туйчиев Комилжон Лазизович	

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINI O'TKAZISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	369
Murtozayeva Dilnoza Boboniyoz qizi	
ИННОВАЦИИ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	378
X.T. Буриев, Тошимов Улугбек Хакимович	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI	384
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
THE EVOLUTION OF MANAGEMENT APPROACHES IN THE 21ST CENTURY – ADAPTIVE MODELS OF TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL STRUCTURES	391
Tukhtaboev Abdurashid Tursunovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA, ELEKTRON XIZMATLAR VA AI TEXNOLOGIYALARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	398
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
MARKETING TADQIQOTLARDA BOG'LIQLIK KOEFFITSENTLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	409
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
GLOBALASHUV DAVRIDA MAMLAKATDA FRILANSERLIK FAOLIYATI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich	
AHOLI TURMUSH DARAJASINING KO'P OMILLI INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISHNING NEYRO-RAVSHAN KLASSIFIKATSIYA MODELI	428
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MARKETING TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	435
Adamboyev Abror Akrom o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ СЕМЕHOBOДЧЕСКОГО СЕКТОРА В СИСТЕМЕ ГЛОБАЛЬНОЙ АГРАРНОЙ И ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	443
Aхмедова Мадина Шухрат кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O'RNI	458
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
SI BILAN JIHOZLANGAN INNOVATSIYALARINING CHAKANA SAVDODAGI ROLI: ISTE'MOLCHI JALB ETILISHI, XARID ODATLARI VA MARKETING STRATEGIYASI.....	464
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETILISHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING BOSH OMILI	482
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	491
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI	504
Xamidbayev Asadbek Nodir o'g'li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ORQALI XALQARO BOZORLARGA CHIQISH IMKONIYATLARI.....	511
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIK OMILLARI.....	519
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TAVSIFLOVCHI MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASH IMKONIYATLARI.....	526
Ibodullayev Shohboz To'liqin o'g'li	
DAVLAT SEKTORIDAGI TASHKILOTLARDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING XORIJ TAJRIBASI.....	534
Azizova Zilola Lochinovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YASHIL KREDITLASH MEXANIZMLARINI OPTIMALLASHTIRISH: EKOLOGIK LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI.....	544
Allayarov Suxrob Rustamovich	

OILAVIY TADBIRKORLIK OMILLARI VA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHNING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI	553
Zaxidova Umida Farxodovna	
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	567
Аминова Азиза Батырбаевна	
AVTOMOBIL SANOATIDA MARKETING TADQIQOTLARI ASOSIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	575
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
HUDUDLARDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	583
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi, Goziyeva Shaxina Djahongirovna	
SANOAT KLASSTERLARIDA MARKETING EKOTIZIMI ISHTIROKCHILARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO ALOQALAR TAHLILI	591
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
AUTSORSING VA AMALIYOT	601
Shodmonov Shokir Dustmurodovich	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЯ О ПОКУПКЕ.....	610
Усмонова Диёра Маҳмуд кизи, Нухритдинхаджаев Улугбек, Атаханов Асадбек	
AGROSANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH	620
Fayzullayev Shuhrat Sherali o‘g‘li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA AUDITORIYANI SEGMENTATSIYALASH	628
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI	636
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
HUDUDLAR BO‘YICHA MOLIVAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHGA ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR	645
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ.....	660
Эргашходжаева Шахноза Джасуровна, Хасанов Ганишер, Сафаров Азизбек	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	676
Ibragimov Salohiddin Ochilovich	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ASOSIY FONDlardan FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA METODIK YONDASHUVLARI	685
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
INVESTITSION RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI	694
Isakov Axmadali Esanbaevich	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: КАК ДАННЫЕ О КЛИЕНТАХ, ЛОЯЛЬНОСТЬ И ОМНИКАНАЛЬНОСТЬ ПОВЫШАЮТ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РОЗНИЦЫ (ФОКУС НА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ).....	704
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	715
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	

HUDUDLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIK KO'RSATKICHLARI TENDENSIYASINI BAHOLASH

Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich

NamDTU, "Menejment" kafedrası DSc, professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston mintaqalarida 2010–2014 hamda 2020–2024-yillar oralig'ida iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishi ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslari, tahdidlar tizimi va hududlararo rivojlanish tafovutlarini aniqlovchi omillar chuqur o'rganildi. Mintaqalardagi iqtisodiy salohiyat, resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsion faollik, sanoatlashtirish darajasi va demografik yuklamaning o'zgarishlarga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Tahlil natijalari hududlar kesimida iqtisodiy o'sishning notekis taqsimlangani, ayrim mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlikning sezilarli darajada mustahkamlangani, boshqalarda esa pasayganini ko'rsatdi. Maqolada hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, mintaqaviy rivojlanish, hududlararo nomutanosiblik, investitsion salohiyat, iqtisodiy diversifikatsiya, mintaqaviy boshqaruv.

Аннотация

В статье на научной основе анализируется динамика показателей экономической безопасности регионов Узбекистана за период 2010–2014 и 2020–2024 годов. В ходе исследования углубленно изучены теоретические основы национальной и региональной экономической безопасности, система угроз и факторов, определяющих межрегиональные различия в развитии. На основе статистических данных оценены экономический потенциал регионов, эффективность использования ресурсов, инвестиционная активность, уровень индустриализации и влияние демографической нагрузки на динамику. Результаты анализа показали, что экономический рост распределен по регионам неравномерно, в одних регионах экономическая безопасность существенно укрепилась, в других снизилась. В статье разрабатываются научно обоснованные предложения, направленные на сокращение межрегиональных различий, укрепление экономической безопасности и обеспечение устойчивого развития.

Ключевые слова: экономическая безопасность, региональное развитие, межрегиональные различия, инвестиционный потенциал, экономическая диверсификация, региональное управление.

Abstract

This article analyzes the dynamic changes in economic security indicators in the regions of Uzbekistan for the period 2010–2014 and 2020–2024 on a scientific basis. During the study, the theoretical foundations of national and regional economic security, the system of threats and factors determining interregional development differences were studied in depth. The economic potential of the regions, the efficiency

of resource use, investment activity, the level of industrialization and the impact of demographic burden on changes were assessed based on statistical data. The results of the analysis showed that economic growth was unevenly distributed across regions, economic security was significantly strengthened in some regions, and decreased in others. The article develops scientifically based proposals aimed at reducing interregional disparities, strengthening economic security and ensuring sustainable development.

Keywords: economic security, regional development, interregional disparities, investment potential, economic diversification, regional governance.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi davlatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda global raqobat sharoitida o'z pozitsiyasini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Milliy iqtisodiy xavfsizlik tizimi samaradorligi, avvalo, uning mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi tamoyillarning qay darajada shakllantirilganiga va amaliyotga tatbiq etilganiga bog'liq. Mazkur tamoyillar nafaqat davlat miqyosida, balki mintaqalarda ham iqtisodiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlashda strategik yo'nalish sifatida xizmat qiladi. Shu bois, milliy xavfsizlik tizimi bilan mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni integratsiyalash tamoyili iqtisodiy makonning yaxlitligini saqlash va hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimini samarali shakllantirish uchun, avvalo, xavfsizlik obyektlarining hayotiy manfaatlariga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash, baholash hamda ularning ehtimolini ilmiy asosda bashorat qilish zarur. Shu bilan birga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olish, ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor va uzoq muddatli strategik chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish talab etiladi. Xavfsizlik tizimining barqaror ishlashi uchun kundalik sharoitlarda ham, favqulodda vaziyatlar davrida ham zarur kuch va vositalarning doimiy tayyor holatda bo'lishi hamda iqtisodiy obyektlarning uzluksiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashtirilishi alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatning xalqaro shartnomalar doirasidagi majburiyatlaridan kelib chiqib, tashqi maydonda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan hamkorlik mexanizmlarida ishtirok etish ham iqtisodiy xavfsizlik tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mintaqaviy darajada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash esa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u hududlarning iqtisodiy, demografik, tabiiy va ijtimoiy parametrlaridagi farqlarga tayanadi. Shuning uchun mintaqalarda xavfsizlik tizimini shakllantirishda mintaqaviy manfaatlar muvozanatini saqlash, davlat va mintaq darajasida boshqaruv organlarining vakolatlari, funksiyalari va mas'uliyat sohalarini aniq chegaralash ustuvor tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Davlat boshqaruvi hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlarning oqilona taqsimlanishi hududiy boshqaruv samaradorligini oshirib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash jarayonining izchilligini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, mintaqalarning tabiiy resurslari, ilmiy-texnik salohiyati, moliyaviy imkoniyatlari hamda intellektual mehnat resurslaridan samarali foydalanish mamlakatning milliy boyligini oshirish, iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, iqtisodiy xavfsizlik masalalariga kompleks, ilmiy asoslangan yondashuv mintaqaviy rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Shu tariqa, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi uning ta'minlanishiga asos bo'luvchi fundamental tamoyillar tizimi bilan belgilanadi va bu tamoyillarni chuqur o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etish hududiy rivojlanish barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik masalasi so'nggi yillarda global iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, geosiyosiy raqobatning kuchayishi va iqtisodiy tahdidlarning xilma-xilligi sababli ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi davlatning iqtisodiy barqarorligi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning izchilligi, resurslardan samarali foydalanish hamda ichki va tashqi risklarni boshqarish qobiliyatini ifodalovchi kategoriya sifatida izohlanadi.

A. Sen[1], J. Stiglitz[2], M. Porter[3] kabi iqtisodiyot nazariyotchilari o'z tadqiqotlarida iqtisodiy tizimning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashni milliy raqobatbardoshlik, iqtisodiy siyosat sifati va institutlarning samaradorligi bilan bog'lashadi. Ularning fikriga ko'ra, iqtisodiy xavfsizlik nafaqat tahdidlarni bartaraf etishni, balki rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ham qamrab oladi. Xususan, Porter hududiy raqobatbardoshlikni oshiruvchi omillar — innovatsiya, infratuzilma, intellektual kapital va resurslardan oqilona foydalanish — mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligi uchun ham muhimligini alohida ta'kidlaydi.

MDH mamlakatlari va Sharqiy Yevropa olimlari tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining institutsional asoslari keng yoritilgan. Xususan, E. Kochetov[4], V. Senchagov[5] va T. Glushenko[6] milliy xavfsizlik tizimini shakllantirishda tahdidlarni diagnostika qilish, ularni baholash indikatorlarini ishlab chiqish hamda xavf-xatarlarning hududlar bo'yicha differensial xaritasini tuzish zarurligini ko'rsatadi. Ular mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi davlat miqyosidagi xavfsizlik tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, mintaqaviy manfaatlar muvozanatini saqlash strategik omil sifatida qaralishi lozimligini ta'kidlaydilar.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar — Sh. G'aniev[7], B. Abdurahmonov[8], Q. Akramov, O. Jo'rayev[9], M.A. Nazarova[10], A.I. Ismoilov[11], va boshqalar — mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari, resurslardan samarali foydalanish va hududiy nomutanosibliklar masalasiga alohida e'tibor qaratishgan. Ularning ilmiy ishlari mintaqalarning tabiiy resurslari, sanoat salohiyati, transport infratuzilmasi va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biri ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini aniq

chegaralash hamda markaz va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvozanatlashni talab etadi.

Xalqaro tajribada iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha yondashuvlar ko'p qirrali bo'lib, ularning aksariyati strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan. OECD[12], BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP)[13] va Jahon Banki[14] tomonidan tayyorlangan hisobotlarda mintaqaviy xavfsizlik indikatorlari, iqtisodiy barqarorlikni baholash modellari hamda makro-iqtisodiy risklarni oldindan aniqlash metodlari ishlab chiqilgan[15]. Ushbu manbalarda mintaqaning raqobatbardoshligi, institutsional salohiyati, innovatsion rivojlanish darajasi va ekologik barqarorlik darajasi iqtisodiy xavfsizlikning asosiy komponentlari sifatida qayd etiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslarini mantiqiy o'rganish, ularning amaliy mexanizmlarini tahlil qilish, tahdidlarni diagnostika qilish hamda mintaqaviy rivojlanish barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvlardan iborat. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar mintaqalarning iqtisodiy salohiyati, tahdidlar tizimi, institutsional omillar va davlat boshqaruvi mexanizmlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakat yoki mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini, ijtimoiy farovonlikni hamda tashqi va ichki iqtisodiy tahdidlarga nisbatan immunitetini ta'minlovchi muhim ko'rsatkichdir. Hududiy darajada iqtisodiy xavfsizlik ishlab chiqarish hajmi, investitsiya oqimi, mehnat resurslari, infratuzilma va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tahlilda 2010–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston hududlarining iqtisodiy xavfsizlik darajasi dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Maqsad — hududlararo farqlarni aniqlash, ularning sabablari va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda baholashdir. Tahlil natijalariga ko'ra, mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligiga quyidagi omillar eng kuchli ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Sanoatlashtirish darajasi — ishlab chiqarish hajmi va turfa sohalarning mavjudligi.
2. Transport va logistika infratuzilmasi — ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati.
3. Investitsiya muhitining barqarorligi — xorijiy va mahalliy kapital oqimi.
4. Aholi soni va bandlik darajasi — mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi.
5. Innovatsion faoliyat — raqamli texnologiyalar, ta'lim va ilm-fan bilan integratsiya.

2010–2014-yillarda O'zbekiston Respublikasining aksariyat viloyatlari iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha past natijalarga ega bo'lgan (0,35–0,70 oralig'ida). 2020–2024-yillar davrida esa bir qator hududlarda ijobiy o'sish kuzatilgan, bu

mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar, investitsiya oqimining oshishi va infratuzilma modernizatsiyasi bilan bog'liq (1-jadval).

1-jadval

2010–2014-yillarda O'zbekiston Respublikasi ayrim viloyatlarining iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari¹

Hudud	2010–2014 y.	2020–2024 y.	O'zgarish (%)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,412	1,006	+144
Navoiy viloyati	0,553	0,768	+39
Toshkent viloyati	1,621	1,173	–28
Qashqadaryo viloyati	0,719	0,548	–24
Andijon viloyati	0,426	0,471	+11
Namangan viloyati	0,372	0,430	+15
Xorazm viloyati	0,335	0,345	+3
Toshkent shahri	0,791	0,772	–2

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 2010–2014 va 2020–2024-yillar oralig'ida mintaqalar rivojlanish ko'rsatkichlarining sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Bu farqlar mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik darajasidagi o'zgarishlar, resurslardan foydalanish samaradorligi, sanoat salohiyati, demografik bosim va investitsion oqimlar differentsialligini aks ettiradi. Har bir hududning o'zgarishi alohida strukturaviy sabablarga ega. Shu bois ushbu tendensiyaning sezilarli o'sish kuzatilgan hududlar va pasayish kuzatilgan hududlar bo'yicha tahlil qilamiz.

1-hududga: Qoraqalpog'iston Respublikasi to'g'ri kelib kuzatilayotgan davr mobaynida 144%ga oshib, bu tendensiya bir nechta omillar bilan Qo'shilgan qiymat yaratish tuzilmasidagi diversifikatsiyaga asosan qishloq xo'jaligidan tashqari qayta ishlash sanoati ulushini ortishi, infratuzilmaviy investitsiyalar hajmining oshishi (bunda suv resurslarini boshqarish, yo'l va transport tarmoqlari modernizatsiyasi hududning iqtisodiy faolligini oshishi, ekologik loyihalar (Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish dasturi) natijasida yangi iqtisodiy faollik nuqtalari paydo bo'lishi hamda xorijiy investitsiyalar oqimi bo'yicha Orolbo'yi mintaqasining xalqaro ekologik hudud sifatida e'lon qilinishi investorlar uchun imtiyozli sharoit yaratganligi bilan izohlanadi.

Navoiy viloyatida 39%ga o'sishi kon-metallurgiya va kimyo sanoatining barqaror kengayishi, erkin iqtisodiy zona faoliyati, raqamlashtirish va logistika tizimlarining takomillashuvi hamda energiya infratuzilmasining rivoji bilan bog'liq holda, bu omillar viloyatni respublikaning iqtisodiy xavfsizlik tayanch hududlaridan biriga aylantiradi. Farg'ona vodiysi hududlaridagi o'sish Andijon viloyati (+11%) va Namangan viloyati (+15%) aholi sonining yuqori bo'lishi tufayli ichki bozor sig'imi kengligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, kooperatsiya zanjirlarining faol shakllanishi (ayniqsa oziq-ovqat, yengil sanoat) omillari bilan izohlanadi. Biroq o'sish sur'atlari uncha yuqori emas, bu esa mintaqaning hududiy resurslari cheklanganligi va demografik yuklama yuqoriligi bilan bog'liq.

2-hududga: birinchi navbatda Toshkent viloyati to'g'ri kelib kuzatilayotgan davrlar mobaynida 28%ga kamaygan bo'lib, bu hududdagi pasayish bir nechta

¹ Muallif ishlanmasi

murakkab omillar jumladan, Toshkent shahrining iqtisodiy “sorbsiya effekti”: yirik sanoat, kapital va mehnat resurslari markazga ko‘chayotganligi, iqtisodiy faollikning bir qismi agglomeratsiya jarayonlari natijasida shahar markaziga siljishi, sanoat korxonalarining bir qismini ekologik talablar tufayli boshqa hududlarga ko‘chirish bilan bog‘liq. Bu holat iqtisodiy xavfsizlikning hududiy nomutanosibliklarda kuchaygan shaklini aks ettiradi.

Keyingi o‘rinda Qashqadaryo viloyati 24%ga pasayish bilan egallab turibdi. Viloyatda bunday pasayishning asosiy sababi uglevodorod qazib chiqarishga haddan tashqari bog‘liqlik, gaz-kimyo sektorida yetarli darajada diversifikatsiya yo‘qligi, investitsiyalarning notekis taqsimlanishi hamda mehnat migratsiyasi oqibatida mahalliy iqtisodiy faollikning pasayishidir. Bu mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi ko‘proq xomashyo modeliga qaramlik bilan tavsiflanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mintaqalar rivojlanishidagi tafovutlar so‘nggi yillarda yanada kuchaygan. Sanoatlashgan yoki davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan hududlar tez o‘sayotgani holda, xomashyo yo‘nalishiga qaram va resurslari cheklangan hududlar pasayish tendensiyalarini ko‘rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy xavfsizlikning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanganini va mintaqalararo barqarorlik uchun zarur bo‘lgan fiskal, investitsion va institutsional siyosatning yanada muvofiqlashtirilishini talab etadi.

Bundan tashqari, poytaxt va unga yaqin hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy markazlashuvning kuchayishi Toshkent viloyati misolida hududning rivojlanish salohiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Aksincha, davlat tomonidan alohida e‘tibor qaratilgan va infratuzilmaviy loyihalar bilan qo‘llab-quvvatlangan hududlar — xususan, Qoraqalpog‘iston — sezilarli ijobiy sur‘atlarni namoyon qilmoqda. Olingan natijalar O‘zbekiston mintaqalari iqtisodiy xavfsizligining asosan quyidagi omillar bilan belgilanayotganini tasdiqlaydi:

- iqtisodiyotning diversifikatsiya darajasi;
- hududning resurs bazasi va uni boshqarish sifati;
- investitsiya oqimlarining barqarorligi;
- infratuzilmaviy ta‘minlanganlik;
- mahalliy boshqaruv samaradorligi;
- demografik bosim va ichki bozor hajmi;
- ekologik omillarning ta‘siri;
- davlatning mintaqaviy siyosatidagi ustuvorliklar.

Mazkur omillar o‘zaro ta‘sirida bo‘lib, hududlarning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kelgusi davrda hududlararo tafovutlarni kamaytirish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror hududiy rivojlanishni ta‘minlash uchun kompleks institutsional va iqtisodiy choralar zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston mintaqalarida iqtisodiy xavfsizlik darajasi va rivojlanish dinamikasining hududlar kesimida sezilarli tafovutlarga ega ekanini ko‘rsatdi. 2010–2014 va 2020–2024-yillar ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili

hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurs bazasi, investitsion faolligi, infratuzilmaviy rivojlanish darajasi hamda davlatning mintaqaviy siyosatiga bog‘liq holda turlicha yo‘nalishda o‘zgarayotganini tasdiqladi. Ushbu tafovutlar mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda kompleks yondashuvga ehtiyoj ortib borayotganini anglatadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi yuqori o‘sish davlatning hududni qo‘llab-quvvatlash siyosati, infratuzilmaviy rivojlanish va xalqaro ekologik dasturlar samaradorligini aks ettirsa, Navoiy viloyatidagi barqaror o‘sish sanoatning yuqori ulushi bilan izohlanadi. Aksincha, Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatlaridagi pasayish iqtisodiy faollikning markazlashuvi, xomashyo sektoriga haddan tashqari bog‘liqlik va diversifikatsiyaning yetarli emasligi bilan bog‘liq. Bu esa hududiy rivojlanishning muvozanatsizligini va iqtisodiy xavfsizlikning zaif nuqtalarini ko‘rsatadi. Mazkur natijalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

- mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda differensial rivojlanish strategiyalari ishlab chiqish zarur;

- past o‘sish sur‘atiga ega hududlar uchun maqsadli davlat dasturlari, soliq imtiyozlari, infratuzilma va sanoatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha mexanizmlar joriy etilishi lozim;

- Qashqadaryo, Xorazm va boshqa resurslarga tayanadigan mintaqalarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytiradi bu esa mintaqalarda klasterlar, texnoparklar, kooperatsiya tarmoqlarini kengaytirish kerakligini taqozo etadi;

- markaziy va mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini qayta taqsimlash orqali mintaqalarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligi kengaytirilishi lozim;

- mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy rejalashtirish ko‘nikmalarini kuchaytirish maqsadida institutsional salohiyatni rivojlantirish dasturlari zarur;

- texnologik innovatsiyalarni mintaqalarga joriy qilishni rag‘batlantirish, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish zarur;

- raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish mintaqalarning yangi iqtisodiy modelga moslashuvini tezlashtiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha rivojlanish sur‘atlari o‘rtasidagi tafovutlar iqtisodiy xavfsizlikning turlicha darajada shakllanganini va hududiy barqarorlikka tahdidlarni kuchaytirishi mumkinligini anglatadi. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun kompleks yondashuv, diversifikatsiyalashgan iqtisodiy model, institutsional islohotlar va innovatsion rivojlanish choralarini uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Taklif etilgan strategik va amaliy choralar mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishga, hududlarning ichki salohiyatidan samarali foydalanishga va milliy iqtisodiy xavfsizlikning barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sen, A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – 366 p.
2. Stiglitz, J. E. Globalization and Its Discontents. – New York: W. W. Norton, 2002. – 304 p.
3. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
4. Kochetov, E. G. Геоэкономика и экономическая безопасность государства. – Москва: Экономистъ, 2019. – 352 с.
5. Senchagov, V. K. Экономическая безопасность: теория, методология, практика. – Москва: Дело, 2017. – 416 с.
6. Glushenko, T. P. Региональная безопасность: экономические риски и методы их оценки. – Москва: Наука, 2018. – 288 с.
7. Gʻaniev, Sh. G. Milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligi va xavfsizligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 312 b.
8. Abdurahmonov, B. X. Iqtisodiy xavfsizlik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 256 b.
9. Akramov, Q. I., Joʻrayev, O. R. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va hududiy xavfsizlik tamoyillari. // Oʻzbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2021, №4, – B. 45–56.
10. Nazarova, M. A., Xasanov, S. R. Mintaqalarda iqtisodiy salohiyat va xavfsizlik indikatorlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022, №2. – B. 89–97.
11. Ismoilov, A. I. Oʻzbekiston mintaqalarida iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashning zamonaviy yondashuvlari. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2023. – 174 b.
12. OECD. Regions and Innovation Policies: Comparative Analysis. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 210 p.
13. UNDP. Human Development Report 2021/2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. – New York: United Nations Development Programme, 2022. – 298 p.
14. Jahon Banki. Economic Resilience and Regional Competitiveness Report. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2021. – 175 p.
15. World Economic Forum. Global Risks Report 2023. – Geneva: WEF, 2023. – 98 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**